

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahridinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriiddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DsC), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region. ....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурбаевич</b> , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o'g'li</b> , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o'qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullahovich</b>	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе ....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari .....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o'g'li</b>	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n., dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxtidinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Kholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abrueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики .....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# BANK DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARIGA MAKROIQTISODIY OMILLAR TA'SIRI

**Madraimov Xabibulla Madaminovich**  
TDIU assistent o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Asia Alliance Bankning 2009–2022-yillardagi olingan ma'lumotlari asosida bank daromadlilik ko'rsatkichlariga YAIM o'sishi, pul massasi, valyuta kursi o'zgarishi, inflatsiya, markaziy bank foiz stavkasi ta'sirining ekonometrik tahilili haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Foiz stavkasi, aktivlar rentabelligi, valyuta kursi, pul massasi, sof foiz marjasi, sof foizli daromad, kapital rentabelligi, Fisher mezoni, korrelyatsion tahlil.

**Annotation:** In this article, based on the data obtained from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and Asia Alliance Bank for 2009-2022, the impact of GDP growth, money supply, exchange rate changes, inflation, central bank interest rate on bank profitability indicators Econometric analysis is discussed.

**Key words:** Interest rate, return on assets, currency rate, money supply, net interest margin, net interest income, return on capital, Fisher's criterion, correlational analysis.

**Аннотация:** В данной статье на основе данных, полученных от Центрального банка Республики Узбекистан и Asia Alliance Bank за 2009-2022 годы, рассмотрено влияние роста ВВП, денежной массы, изменения обменного курса, инфляции, процентной ставки центрального банка на показатели прибыльности банка. Обсуждается эконометрический анализ.

**Ключевые слова:** Процентная ставка, рентабельность активов, валютный курс, денежная масса, чистая процентная маржа, чистая процентная прибыль, рентабельность капитала, критерий Фишера, корреляционный анализ.

## KIRISH

Iqtisodiyotni liberalallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan 2017 yilda boshlangan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o'rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlarini belgilab berdi.

Mazkur yo'naliishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberalallashtirilishi bilan bog'liq amaliy qadamlar bo'ldi.

Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalaniishi, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Valyuta bozorini liberalallashtirish borasidagi islohotlarning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatlari amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, narxlar barqarorligi deyilganda nol darajadagi yoki salbiy inflyatsiya ko'rsatkichlari nazarda tutilmaydi. Narxlar barqarorligi deyilganda narxlarning turg'un holatda turishi emas, balki ularning past darajada o'sishi tushuniladi. Bir qarashda narxlarning turg'un turishi maqbul ko'rinsa-da, narxlarning past va barqaror o'zgarishi iqtisodiyotning samarali faoliyati uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Bunda inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan,



narxlari o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

Inflyatsianing past va barqaror darajasi aholi hamda yuridik shaxslar omonatlarini uzoq muddatli investitsiyalarga aylanishi uchun kerakli sharoit yaratadi hamda ichki bozordagi narxlar nomutanosibligini kamaytirib mavjud iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartibi va ketma-ketligi turli mamlakatlarda iqtisodiyotning xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishiga qarab farqlanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga ko'r'a, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Bunda "milliy valyuta barqarorligi" tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligi yoki uning ichki xarid qobiliyatini barqarorligi deb talqin qilish mumkin.

Almashuv kursining erkin shakllanishi sharoitida milliy valyutaning barqarorligi uning ichki harid qobiliyatini saqlash orqali erishiladi.

Bunda, erkin suzib yuruvchi almashuv kursi iqtisodiyotni ichki barqarorlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi bilan bog'liq tashqi shok va qiyinchiliklar kuzatilganda almashuv kursining mos ravishda o'zgarishi ekportyorlar va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rag'batlanirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy maqsadini ikki xil tushunilishini oldini olish va uning faoliyati asosiy yo'nalishini aniq belgilab olish maqsadida qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilgan.

## TADQIQOT OBYEKTI

Tadqiqotning obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Asia Alliance Bank ATB tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Markaziy Bank foiz stavkasi, iste'mol narxlari indeksi, YAIM o'sishi, pul massasi o'zgarishi, valyuta kursi o'zgarishi bilan tijorat banklari daromadlilik ko'rsatkichlari o'tasidagi bog'liqlikni ekonometrik tahibili tashkil etadi. Bunda 2009-yildan 2022-yilgacha bo'lgan 14 yillik ma'lumotlarini bankning rentabelligiga ta'sirini tahlil qilish uchun ishlatdik. Rentabellik va makroiqtisodiy omillar o'tasidagi bog'liqlikni o'rgandik.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Sufian va Kamarudin (2012) Bangladeshdagi 31 ta tijorat bankidan iborat namuna yordamida 2000 yildan 2010 yilgacha Bangladeshning bank sektorida banklarning o'ziga xos xususiyatlari va rentabellikning makroiqtisodiy omillarini aniqladilar. Determinantlar ko'p martalik regresiya tahlili yordamida aniqlandi. Natijalardan ko'rinish turibdiki, makroiqtisodiy omillar rentabellikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiy o'sish va banklarning faoliyati o'tasidagi bog'liqlik salbiy va muhim, inflyatsiya koefitsiyenti esa muhim va ijobjiy edi.

Rao & Lakew (2012) 1999/00-2008/09-yillarda davrida banklarning panel ma'lumotlari to'plamidan foydalangan holda Efiopiyada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining rentabelligining asosiy omillarini o'rgandi. Tashqi omillar banklar faoliyat ko'rsatayotgan sanoat va makroiqtisodiy ssenariylarga bog'liq edi. Tadqiqot natijasida tashqi omillar statistik jihatdan ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatdi. Inflyatsiya statistik jihatdan ahamiyatsiz deb topildi, ammo u banklarning rentabelligi bilan ijobjiy bog'liq. Real YAIM o'sish sur'ati ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz, garchi ijobjiy belgi bilan ko'rsatilgan bo'lsa ham.

Haron (2004) islom banklarining rentabelligini belgilovchi omillarni o'rganib chiqdi va KPI barcha rentabellik mezonlari bilan ijobjiy bog'liqligini aniqladi, ularning bog'liqligi statistik jihatdan ahamiyatsiz edi.

Dietrich & Wanzenried (2009) Shveytsariyadagi tijorat banklarining rentabelligini 1999-yildan 2006-yilgacha bo'lgan davrda tahlil qildi. Ularning tanloviiga 453 ta bankdan 1 919 ta kuzatuv kirgan. Banklarga xos xususiyatlardan tashqari, ular regressiya tahlillariga makroiqtisodiy va tarmoqlarga xos o'zgaruvchilarni ham kirdilar. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, YAIM o'sish sur'ati Shveytsariyadagi banklarning rentabelligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, koefitsiyentlar 5% darajasida sezilarli.

Athanasioglou et al.,(2006) 1998-2002-yillar davrida Janubi-Sharqiy Yevropa kredit muassasalarining muvozanatsiz panel ma'lumotlar to'plamidan foydalangan holda banklarga xos, sanoat bilan bog'liq va makroiqtisodiy aniqlovchi omillarning rentabellik xatti-harakatlarini o'rgandi. Hisob-kitob natijalaridan ko'rinish turibdiki, makroiqtisodiy aniqlovchi omillar bo'yicha tasvir turlicha edi. Inflyatsiya daromadlilikka ijobjiy va sezilarli darajada ta'sir qiladi.



Ongore (2013) Keniyadagi tijorat banklarining panel ma'lumotlari bo'yicha chiziqli ko'p martalik regressiya modeli va umumlashtirilgan eng kichik kvadratdan foydalanib, banklarning ishlashi bo'yicha mulkchilik tuzilmasining o'ttacha ta'sirini o'rgandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, yalpi ichki mahsulotning ROA bilan -0,046 korelatsiya koeffitsiyenti ahamiyatsiz edi, inflyatsiya Keniyadagi tijorat banklarining moliyaviy faoliyati bilan sezilarli salbiy bog'liqlikka ega edi. Bu ROA bilan parametrлarning -0,055 koeffitsiyentiga ega edi.

Constantinos & Sofoklis (2009) oltita yunon bankiga oid panel ma'lumotlari yondashuvidan foydalangan holda banklarning rentabelligiga banklarga xos va makroiqtisodiy omillarning ta'sirini o'rgandi. Inflyatsiya darajasi banklarning rentabelligiga ijobjiy, ammo mayda ta'sir ko'rsatdi. Qolgan makroiqtisodiy o'zgaruvchilar, masalan, YALM juda ahamiyatsiz deb topildi.

Otuori (2013) Keniyadagi tijorat banklarining faoliyatiga valyuta kursi omillarining ta'sirini o'rganish orqali inflyatsiya darajasi va banklarning Keniyadagi rentabelligi o'ttasidagi munosabatni aniqlashga harakat qildi. Tadqiqotga ko'ra, inflyatsiya darajasi banklarning rentabelligiga salbiy va sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir 5% ishonch darajasida sezilarli edi.

Ramadan et al, (2011) lordaniyadagi banklarning rentabelligi va ichki va tashqi omillarning xususiyatlari o'ttasidagi munosabatlarning tabiatini lordaniyadagi banklarning panel ma'lumotlari to'plamidan foydalangan holda o'rganish. Shu maqsadda 2001–2010-yillarda davrida 10 ta bankni kuzatish uchun 100 ta kuzatuv o'tkazildi. Makroiqtisodiy aniqlovchi omillar – inflyatsiya (INF) va iqtisodiy o'sish (RGDP) bilan bog'liq natijalar aktivlar daromadlariga ijobjiy ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatdi.

Jasmine (2011) 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so'ng Malayziyadagi tijorat banklarining rentabelligini belgilaydigan omillarni aniqladi. 2004-yildan 2010-yilgacha vaqt oralig'ida Malayziyadagi tijorat banklarini ifodalash uchun 8 ta tijorat banki tanlandi. ROA tijorat banking foydasini baholash uchun bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlandi va 10 ta mustaqil o'zgaruvchi, ya'nı kredit berishning asosiy stavkasi, yalpi ichki ishlab chiqarish, inflyatsiya darajasi, kapitalning yetarliligi nisbati, umumiyligi daromad, xarajatlarni boshqarish, foizlarni qoplash, umumiyligi kreditlar, umumiyligi omonatlar va bank hajmi. Ko'rib chiqilganidek, kredit berishning asosiy stavkasi muhim o'zgaruvchi bo'lib, inflyatsiya stavkasi Malayziyadagi tijorat banklarining rentabelligini aniqlashda ahamiyatsiz edi.

Flamini va boshqalar. ((2009) Afrika Sahrasidan janubiy qismidagi tijorat banklari rentabelligining aniqlovchi omillari bo'yicha o'zlarining tadqiqotlarida Makroiqtisodiy o'zgaruvchilar Afrika banklarining rentabelligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini aniqladilar. Ayniqsa, inflyatsiya banklarning foydasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi; ishlab chiqarish o'sishi banklarning rentabelligiga sezilarli ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Li (2009) banklarning o'ttacha aktivlar daromadidan (ROAA) o'chanadigan banklarning rentabelligiga banklarning o'ziga xos omillari va makroiqtisodiy omillarining ta'sirini o'rgandi. Natijalarga ko'ra, makroiqtisodiy o'zgaruvchilar real YALM va inflyatsiya) ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatdi.

Zhang and Dong (2011) OLSDan foydalangan holda AQSh bank sektorining 2000–2008-yillarda davridagi rentabelligini tahlil qildilar. Ularning rentabelligini belgilaydigan omillarga banklarga xos xususiyatlar hamda makroiqtisodiy omillar kirgan. Ular BITning makroiqtisodiy omillari va foiz stavkalarining o'zgarishi bank foydasini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqladilar.

Babazadeh & Farrokhnejad (2012) 2006-yildan 2010-yilgacha besh yil davomida Eron tijorat banklaridan birida xatolarni tuzatish modelini (ECM) qo'llab, valyuta o'zgarishlarining banklarning faoliyati va foydalariga ta'sirini o'rgandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ayirboshlash kursi foydalarni belgilaydigan muhim omil bo'lgan.

O'zbekistonda makroiqtisodiy omillarning bank rentabelligiga ta'siri to'g'risida bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi. Muqaddasxon Anvarova va O'lmas Isakov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat mulki va operatsion xarajatlari bankning rentabelligi bilan salbiy va statistik jihatdan muhim bog'liq. Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati O'zbekistondagi tijorat banklarining ROE va ROA bilan salbiy bog'liq, inflyatsiya va likvidlik darajasi esa ROE bilan ijobjiy bog'liq.

Nuriddin Yusupov va Akmaljon Abdurahmonovning yana bir tadqiqotida, foiz stavkalarini, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish O'zbekistondagi banklarning rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, banklarga xos omillar, masalan, kapitalning yetarliligi, likvidlik va kredit portfeli sifati bank rentabelligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

## ADABIYOTLARDAGI KAMCHILIKLAR

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, dunyoning turli qismlarida banklarning rentabelligini belgilaydigan omillar bo'yicha bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, ushbu sharhlarning kamchiligi shundaki, ko'pgina tadqiqotlar bankning o'ziga xos xususiyatiga qaraganda umumiyligi ko'rib chiqishni beradigan panel ma'lumotlari to'plamiga asoslangan. Tadqiqotlardan ko'rinish turibdiki, makroiqtisodiy omillarning bank rentabelligiga ta'siri aniq emas, ba'zi tadqiqotlar ahamiyatsiz ta'sir etgan bo'lsa, boshqalari esa sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotda O'zbekistondagi banklarning rentabelligiga makroiqtisodiy omillarning ta'sirini banklarga xos xususiyatlarini aniqlash uchun Asia Alliance Bank bilan bog'liq yillik ma'lumotlardan foydalangan holda ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun foydalanilgan.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Yuqorida aytib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun panel ma'lumotlaridan O'zbekiston banklarining moliyaviy hisobotlardan kelib chiqadigan rentabelligini aniqlovchi omillar bo'yicha empirik tahlil qilish uchun foydalanildi, ya'ni moliyaviy nisbatlar va makroiqtisodiy o'zgaruvchilar tadqiqot gipotezalarini tekshirish uchun ishlataladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2009-yilda tashkil qilingan Asia Alliance Bankfaoliyati davomida oradan 14 yil muddat o'tdi, bu albatta tahlil qilisga arzigulik muddat hisoblanadi va bu davrda bank daromadlilik ko'satkichvhlariiga ta'sir qilayotgan makroiqtisodiy omillarni ayrimlarini tadqiqotimizda to'xtalib o'tamiz, zero bu jarayonni sanoqli omillarning asosiy ta'sir etuvchi sifatida olsak, biz judayam boshqa ko'plab ta'sir kuchlariga ko'z yumgan bo'lamiz, ammo ushbu magistrlik ishimizda biz bu ayrim makroiqtisodiy omillarning bank tizimiga ta'srini eng oddiy usul (korrelyatsion-regression tahlil) asosida ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Bu jarayonni tasvirlash uchun bizga makroiqtisodiy omillardan Markaziy Bank foiz stavkasi, yillik inflyatsiya ko'rsatkichlari, valyuta kursi o'zgarishi, keng pul massasi, YALM o'sishi kabi ko'rsatkichlarning bank daromadlilik ko'rsatkichlari; aktivlar rentabelligi va kapital rentabelligi, sof foizli daromadlarning aktiv va kapitaldagi samaradorligi, sof foizli marjaning samaradorligiga ta'sirini 2009-2022-yillardagi yig'ilgan tahliliy ma'lumotlar asosida ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Quyida biz tahlil qilgan ma'lumotlar bitta jadvalga yi'gilgan:

Buni dastavval bog'liq va mustaqil omillarning o'zaro bog'lanish kuchini korrelyatsion tahlil orqali Excel dasturi yordamida bitta qolipga solishga harakat qildik (2.5-jadval).

### 2.5-jadval



Ushbu korrelyatsiya matritsasi orqali ROA ko'rsatkichi yaxshiroq tushuntirib berish mumkin, bunda keng pul massasi ROA bilan o'rtacha bog'liqlikka ega(0.6), valyuta kursi o'zgarishining zichligi o'rtachadan past(0.4) ko'rsatkichga teng bo'lgan bog'liqlikniga beradi, real YALM o'sishi bilan ta'sir kuchi judayam past(-0.02.), demak uni yaxshi tushuntirib bera olmaydi, shuning uchun uni tashlab yuboramiz, Markaziy Bank foiz stavkasi bilan esa judayam kuchsiz bog'liqlik mavjud(0.1), inflyatsiya dinamikasi bilan ham kuchsiz bog'liqlik borligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rileyotgan bog'liqlik albatta uzoq muddatli jarayonni uziga qamrab olgani holda biz qabul qilgan makroiqtisodiy omillardan tashqari boshqa ta"ir etuvchi omillar borligidan darak beradi.

O'z navbatida omil belgilar o'rtasidagi bog'liqlik zichligini ham ko'rib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lardi, shunga ko'ra pul massasi bilan inflyatsiya(0.4) va Markaziy Bank foiz stavkasi(-0.011) deyarli bog'lanish mavjud emas, valyuta kursi o'zgarishi(0.3) ko'rsatkichlari o'zaro kuchsiz bog'lanishga egaligini ko'rishimiz mumkin, real YALM o'sishi bilan (0.3) kuchsiz bog'liqlik borligini ko'rishimiz mumkin, o'z navbatida Valyuta kursi o'zgarishining boshqa makroiqtisodiy omillar; Markaziy Bank foiz stavkasi bilan uzoq muddatda deyarli(-0.1) bog'liqlik



yuqligini ko'rsatsa, real Yalm o'sishi bilan bilan ham xuddi shunday bog'lanish (-0.1) mavjudligini ko'rish mumkin, inflyatsiya bilan esa kuchsiz (0.2) bog'langanini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shu orada real Yalm o'sishining asosiy stavka bilan o'trachadan kuchsiz(-0.4) bog'langanligi ko'rinsa, inflyatsiya bilan kuchsiz(0.1) zichlikda bog'liqlik borligini ko'rishimiz mumkin. Shu ketishda Markaziy Bank foiz stavkasi hamda inflyatsiya darajalarini ham yondosh makroiqtisodiy omillar bilan bog'lanish zichligini ko'rib o'tsak, bunda asosan foiz stavkasi bilan uzoq muddatda kuchsiz teskari (0.3) bog'liqlik mavjudligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Albatta tadqiqotimizning dastlabki bosqichiqa bu omillarni qisqa muddatda(6yil) tahlil qilganimizda biroz boshqacharoq tahlilni qo'lg'a kiritgan edik va xulosamiz ham shunga yarasha biroz boshqacha edi, lekin uzoq muddatda olingan tahlilimiz natijalari tubdan farq qilishini ko'rdik, demak uzoq muddatda ta'sir etuvchi omillar kuchi pasayib borishi va bu jarayonda yana ko'zga ko'rinnagan boshqa omillar ishtirok eta boshlashi mumkinligiga amin bo'ldik.

Modeldagi tushuntiruvchi omillar uchun VIF tahlil o'tkazamiz, multikolleniarlik holati mavjudmi yoki yuqligini aniqlash maqsadida.

X4 ni VIF ga tekshiramiz:  $VIF = 1/1-R^2 = 1/1-0,3587420393024952 = 1.1477 < 5$  multikollinearlik yuq.

VIF-test X1 va X2 orasida – 1.08979 < 5 – multikollinearlik yo'q.

VIF-test X1 va X3 orasida – 1.0043 < 5 – multikollinearlik yuq.

VIF-test X1 va X4 – 1.1477 < 5 – multikollinearlik yo'q.

VIF-test X1 va X5 – 1.02669 < 5 – multikollinearlik yo'q.

VIF-test X2 va X3 orasida – 1.1837 < 5 – multikollinearlik yo'q.

VIF-test X2 va X4 orasida – 1.001 < 5 – multikollinearlik yuq.

VIF-test X2 va X5 orasida – 1.005 < 5 – multikollinearlik yuq.

VIF-test X3 va X4 – 1.095 < 5 – multikollinearlik yo'q.

VIF-test X3 va X5 – 1.02 < 5 – multikollinearlik yo'q.

VIF-test X4 va X5 – 1.0836 < 5 – multikollinearlik yo'q.

Demak modelimiz uchun barcha omillar qabul qilish uchun mos keladi.

Prediktorlar yordamida aktivlar rentabelligi ROA (Y) ning necha foizini tushuntirib berish mumkinligini topamiz;

1. Inflyatsiya(X1)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

## 2.6-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,164357495	Y-пересечение	1,683125023
R-квадрат	0,027013386	Iste'mol narxlari indeksi (X1)	0,030825037

$y^=1.68+0.0308*X1$  regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 3% ( $r^2*100\%$ ) tushuntirib bera olamiz.

Demak bu omilni modelimizga kiritmasdan boshqa omillar qismida qoldirsak ham bo'ladi.

2. Asosiy stavka(X2)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

## 2.7-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,146505813	Y-пересечение	0,733433162
R-квадрат	0,021463953	Asosiy stavka (x2)	0,117028584

$y^=0.7334+0.117*X2$  regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 2% ( $r^2*100\%$ ) tushuntirib bera olamiz. Demak bu omilni ham modelimizga kiritmasdan boshqa omillar qismida qoldirsak ham bo'ladi.

3. Real Yalm o'sishi(X3)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

## 2.8-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,026459159	Y-пересечение	2,444216463
R-квадрат	0,000700087	YAIM o'sishi (X3)	-0,033106039

$y^=2.444-0.033*X3$  regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 0% ( $r^2*100\%$ ) tushuntirib bera olamiz. Shuning uchun bu omilni qo'shib o'tirmaymiz, balki boshqa ta'sir etuvchi omillar tarkibida qolaveradi.

4. Keng pul massasi(X4)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:



## 2.9-jadval

Регрессионная статистика		Коэффициенты	
Множественный R	0,026459159	Y-пересечение	2,444216463
R-квадрат	0,000700087	YAIM o'sishi (X3)	-0,033106039

$y^=-1.885+0.1645*X4$  regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 39% ( $r^2*100\%$ ) tushuntirib bera olamiz.

5. Valyuta kursi o'zgarishi(X5)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

## 2.10-jadval

Регрессионная статистика		Коэффициенты	
Множественный R	0,401968277	Y-пересечение	1,575885074
R-квадрат	0,161578496	Valyuta kursi o'zgarishi (X5)	0,037017774

$y^=1.5758+0.037*X5$  regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 16% ( $r^2*100\%$ ) tushuntirib bera olamiz.

6. Valyuta kursi o'zgarishi (X4) va Pul massasi o'zgarishi (X5) bilan birga-likda ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini Gretl dasturi yordamida topamiz:

## 2.11-jadval

Регрессионная статистика		Коэффициенты	
Множественный R		0,665468484	
R-квадрат		0,442848304	
		Коэффициенты	
Y-пересечение		-1,833810968	
Keng pul massasi (X4)		0,146237153	
Valyuta kursi o'zgarishi (X5)		0,02289285	

$y^=01.8338+0.14623*X4+0.02289*X5$  regressiya tenglamasi orqali ROA (Y)ning 44% ( $r^2*100\%$ ) tushuntirib bera olamiz.

Prediktorlarni t-testdan o'tkazamiz:

Odatda statistik gipotezalarda ahamiyatlilik daraasi ( $\alpha$  belgisi) to'g'ri gipotezani rad etish ehtimo deb ataladi(bui birinchi turdag'i xatolik). Ahamiyatlilik darajasi  $\alpha$  odatda 0.05 va 1 % qiymatlarni qabul qiladi, bu esa birinchi turdag'i xatolarning 5 % va 1% gacha bo'lish ehtimoliga to'g'ri keladi<sup>1</sup>. Shunday bo'lgani holda biz tad-qiqotimizda kamchiliklarni inobatga olib bu ko'rstanichni maksimal chegarasidan foydalanib 10% qilishga qaror qildik.

$$H_0: b_1=0, b_2=0, b_4=0, b_5=0$$

$$H_1: b_1 \neq 0, b_2 \neq 0, b_4 \neq 0, b_5 \neq 0$$

$H_0$  rad etiladi, agar t statistika  $t > t_{\alpha/2}$  dan katta bo'lsa:

## 2.12-jadval

	Коэффициенты	Стандартная ошибка	T-статистика
Y-пересечение	-1,833810968	1,548214474	-1,184468302
Keng pul massasi (x4)	0,146237153	0,062056396	2,356520231
Valyuta kursi o'zgarishi (x5)	0,02289285	0,021575027	1,061080944

$$t_{0,1}(12) = 1.782$$

Keng pul massasi (X4) bo'yicha  $t > t_{\alpha/2}$ , demak  $H_0$  rad etiladi, Valyuta kursi o'zgarishi (X5) bo'yicha esa  $t < t_{\alpha/2}$ , demak parameter model uchun ahamiyatsiz deb topildi. Chunki

U holda keng pul massasi orqali modelni qayta tuzamiz:

1 A. Ishnazarov, Sh. Nurullayeva. Ekonometrikaga kirish. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2021 – 264-b.



## 2.13-jadval

Регрессионная статистика	
Множественный R	0,621145443
R-квадрат	0,385821661
Коэффициенты	
Y-пересечение	-1,885294694
Keng pul massasi (X4)	0,164530732

va  $y^{\wedge} = -1.8852 + 0.1645 \cdot X_4$  regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 0ga teng bo'lmagan aniq qismini tushuntirib bera oladi deb ayta olamiz.

Endi modelda F-test o'tkazamiz:

H0:  $r^2 = 0$

H1:  $r^2 > 0$   $y^{\wedge} = -1.8852 + 0.1645 \cdot X_4$  H0 rad etiladi, agar F statistika Fa dan katta bo'lsa.

## 2.14-jadval

	df	SS	MS	F	Значимость F
Регрессия	1	17,91660811	17,91660811	7,538298965	0,017746454
Остаток	12	28,52093004	2,37674417		
Итого	13	46,43753815			

Fisherning F mezoniga ko'ra, regressiya tenglamasining statistik ahamiyatsizligi (ya'ni F qiymatining noldan statistik jihatdan ahamiyatsiz farqligi ) haqida H0 lik gipoteza. Bu gipoteza  $F > F_{\text{jad}}$  shartni qondirganda rad etilmoqda , bu terda Fjadval Fisher F-mezonining jadvalidan o'darajaga ega bo'lgan va  $k_1 = k$ ,  $k_2 = n - k - 1$  erkinlik darajalari bilan aniqlanadi <sup>2</sup>. Bizda F mezoning haqiqiy qiymati = 7.53829 ga teng bo'lgani holda, jadval qiymati 0.1 ahamiyatlilik darajasida  $F_{\alpha/2}(1;12) = 3.1766$  qiymatni ko'rsatdi, demak,  $F < F_{\alpha/2}$ , H0 gipoteza rad etildi, Keng pul massasi(X4) va ROA(Y)ning aniq 0 ga teng bo'lmagan foizini tushuntirib bera oladi,  $y^{\wedge} = -1.8852 + 0.1645 \cdot X_4$  regressiya tenglamasi orqali.

Model uchun koeffitsiyentlarni tushunramiz:

$Y^{\wedge} = -1.8853 + 0.1645 \cdot X_4$  regressiya tenglamasi. Keng pul massasi 1 foizga oshganda aktivlar rentabelligi 0.1645 foizga ortadi. Keng pul massasi ( $X_4$ )= 35.12% bo'lganda aktivlar rentabelligini foiz ko'rsatkichini topamiz:  $Y^{\wedge} = -1.8853 + 0.1645 \cdot 35.12 = 3.89194$ . Demak, keng pul massasi 35.12 % bolganda aktivlar samaradorligi 3.89 foiz ko'rsatkichini berar ekan.

## XULOSA VA TAKLIF

Xulosa qilib aytganda, banklarning daromadilik ko'rsatkichlari uzoq muddatli tahsil natijalariga tayanib aytadigan bo'lsak, xususan, aktivlar rentabelligi makroiqtisodiy omil sifatida pul massasi o'zgarishiga 39% bog'liqlik jihatli bor ekan, qolgan qismini yana tadqiq etilmagan boshqa omillar ta'siri ostida o'zgarishi mumkinligini aytaks boladi. O'z navbatida biz ko'rib chiqqan makroiqtisodiy omillar ichida aktivlar rentabelligini hisoblashda eng avvalo biz ko'rib chiqqan omillar ichidan pul massasini e'tiborga olish kerakligi a'y'on bo'ldi. Aktivlar samaradorligi asosan yirik banklarda natija berib mayda banklarda ko'zlangan natijani bermaydi, sababi yirik banklar muomalaga chiqaradigan aktivlari nisbatan yuqoriliqi; bank taklif qiladigan kreditlar diversifikatsiyasi kengligi; bozor umumiy hajmining salmoqli hissasini egallashi bilan mayda banklardan ustunlik qiladi. Shu o'rinda mayda banklar o'zaro aksionerlik jamiyatni sifatida birlashib faoliyat olib borishlari aktivlarni boshqarishda; samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lgan bo'lardi. Shu o'rinda biz tadqiq qilgan Asia Alliance bank ham 2009-yildan 2022-yilning boshigacha deyarli davlat banki sifatida faoliyat olib borganligi, bu esa samarasiz faoliyat ko'rsatkichlarining yuzaga chiqishiga sabab bo'lgani, xususiylashtirilganidan keyin 1 yil ichida katta o'zgarishlarga erishganligi, xususiylashtirishning afzalliklaridan dalolat beradi.

Taklif sifatida shuni aytish mumkinki, markaziy bank raqamli valyutalardan foydalanishni boshlashi kerak. Markaziy bank raqamli valyutalari – bu jismoni tovarga bog'lanmagan hukumat tomonidan chiqarilgan valyutaning raqamli shakli. Ular markaziy banklar tomonidan chiqarilgan bo'lib, ularning vazifasi mamlakat hukumati va tijorat banklari tizimi uchun moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish, pul siyosatini belgilash va valyutani chiqarishdir. Ya'ni markaziy banklar tomonidan chiqarilgan naqdsiz valyutaning raqamli versiyalari. Ulardan to'lovlarini amalga oshirish, qiymatni saqlash va bitimlarni hal qilish uchun foydalanish mumkin. Raqamli valyutalar markaziy banklarga pul ta'minotini yanada samarali va boshqarishlariga yordam berishi mumkin.

<sup>2</sup>Niyozov Z.D., Daminov F.M. "Bank xizmatlari: hozirgi holoti va rivojlantirish tendensiyalari". S-2009y. 89-bet.



- Ko'plab mamlakatlar raqamli valyutani joriy etdi. Mana bir nechta misol:
- Bahamalar: Bahamalar Sand dollar deb nomlangan raqamli valyutani joriy etgan birinchi mamlakat edi. U 2020-yil oktyabr oyida ishga tushirildi.
- Nigeriya: Nigeriya Markaziy banki o'zining raqamli valyutasi eNaira-ni 2021-yil oktyabr oyida ishga tushirdi.
- Xitoy: Xitoy Xalq banki o'zining raqamli valyutasini, raqamli yuannini 2014-yildan beri ishlab chiqmoqda. U hozirda sinov bosqichida.
- Qo'shma Shtatlar: Federal zaxirasi raqamli valyutani ishga tushirish imkoniyatini o'rganmoqda. Biroq, hali qaror qabul qilinmagan.
- Sun'iy intellektidan foydalanish ma'lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy tendensiyalar haqida bashorat qilish uchun ishlatalishi mumkin. Sun'iy intellekt markaziy banklarga pul siyosati bo'yicha yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam berishi mumkin. Sun'iy intellektidan ma'lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy tendensiyalar haqida bashorat qilish uchun foydalanish mumkin. Bu markaziy banklarga pul siyosati bo'yicha yaxshiroq qarorlar qabul qilishga va iqtisodiyotni shoklardan himoya qilishga yordam berishi mumkin.
- Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**
1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari
  2. <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/bank-return-on-assets-percent-before-tax-wb-data.html>
  3. Gujarati, D.N. (2004). "Basic Econometrics" (4th ed.). The McGraw – Hill Companies
  4. Haron,S. (2004). "Determinants of Islamic Bank Profitability". Global Journal of Finance and Economics. USA, Vol 1, No 1, March 2004.
  5. Jasmine,E. (2008). "An Empirical Analysis of Commercial Banks' Profitability Determinants in Malaysia after the 2008 Financial Crisis". A Research Project Submitted in Partial Fulfillment of the Requirement for the Degree of Bachelor of Business Administration (Hons) Banking and Finance. University of Tunku Abdul Rahman.
  6. Koutsoyiannis,A. (2003). "Modern Microeconomics" (2nd ed.). London: Macmillan Press Ltd
  7. Li,Y.(2009). "Determinants of Banks. Profitability and its Implication on Risk Management Practices: Panel Evidence from the UK in the Period 1999-2006". A Dissertation presented in part consideration for the degree of MA in Risk Management. The University of Nottingham
  8. Ongore,V.O (2013)."Determinants of Financial Performance of Commercial Banks in Kenya". International Journal of Economics and Financial Issues, Vol. 3, No. 1, 2013, pp.237- 252 ISSN: 2146-4138
  9. Oso,W.Y. and Onen,D. (2009). "Writing Research Proposal and Report: A handbook for beginning researchers"(Revised Edition). Kenya: The Jomo Kenyatta Foundation
  10. Otuori, O. H. (2013). "Influence of exchange rate determinants on the performance of commercial banks in Kenya". European Journal of Management Sciences and Economics, 1(2), 86-98.
  11. Panayiotis P. Athanasoglou,P,P.,Delis,M,D. & Staikouras,C,K.(2006). "Determinants of Bank Profitability in the South Eastern European Region". Bank of Greece Economic Research Department –Workig Paper No.47. ISSN 1109- 6691
  12. Ramadan,I.Z., Kilani,Q.A.& Kaddumi,T.A. (2009). " Determinants of Bank Profitability: Evidence from Jordan".International Journal of Academic Research, Vol. 3. No. 4.
  13. Rao,K,R,M.& Lakew,T,B.(2012). "Determinants Of Profitability of Commercial Banks in A Developing Country: Evidence from Ethiopia". International Journal of Accounting and Financial Management Research (IJAFMR).ISSN 2249-6882.Vol. 2 Issue 3 Sep 2012 1-20
  14. Sufian,F. & Kamarudin,F. (2012). "Bank-specific and Macroeconomic Determinants of Profitability of Bangladesh's Commercial Banks". Bangladesh Development Studies. Vol. XXXV, December 2012, No. 4
  15. Zhang,C. & Dong,L.(2011). "Determinants of Bank Profitability: Evidence from the U.S Banking Sector". Research Project Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Financial Risk Management. Simon Fraser University
  16. Anvarova, Mukaddashxon va Olmas Isakov. "Hukumat mulki banklarning rentabelligiga ta'siri: O'zbekistondagi tijorat banklarining empirik dalillari". Iqtisodiyot va moliyaviy tahlillar jurnali 6, no. 1 (2022): 37-53.
  17. Nuriddin Yusupov va Akmaljon Abdurahmonov. "Inlyatsiya va iqtisodiy o'sishning banklarning rentabelligiga ta'siri: O'zbekistondagi tijorat banklarining empirik dalillari". Iqtisodiyot va moliyaviy tahlillar jurnali 6, no. 1 (2022): 54-68.

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.